

# IQLIM O‘ZGARISHLARGA QARSHI KURASHISHNING MOLIYAVIY MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398514>

A.A. Elov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
universiteti bosh ilmiy xodimi, h.f.f.d (Ph.D)

**Annotatsiya.** Maqolada iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish zaruriyati, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish tushunchasi va yo‘nalishlari, ushbu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bayon etildi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiy o‘shish, iqlim o‘zgarishi, qarshi kurashish, moslashish, energiya, nol emissiya, qayta tiklanuvchi emissiya, moliyalashtirish, investor, bank.

**Abctaret.** The article describes the need for financing to combat climate change, the concept and directions of financing to combat climate change, problems in this area and proposals for eliminating them.

**Keywords:** economic growth, climate change, mitigation, adaptation, energy, zero emissions, renewable emissions, financing, investor, bank.

Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish, oqibatlarini yumshatish va moslashish, atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi yangi energiya tizimlari va infratuzilmalarni yaratish yirik moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi. Mazkur choralarni barvaqt ko‘rilishi, iqlim o‘zgarishlari natijasida kelib chiqadigan zararlarni oldini olish bilan birgalikda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Iqlim o‘zgarishiga olib keluvchi emissiyalarning nolga tenglashtirish iqtisodiyotiga o‘tish va bu jarayonni tezlashtirishda moliyaviy sektor hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu rol iqlim o‘zgarishga qarshi kurashishni o‘z vaqtida moliyalashtirish, zarur fondlarni tashkil qilish, tabiiy resurslar va uglerod chiqindilariga narx belgilash, atrof-muhitni asrashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va boshqa faoliyatlarni qamrab oladi.

Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar so'nggi vaqtlarda iqtisodchilarning ilmiy bahslarida ko'proq muhokama etilib, unga nisbatan "iqlimni moliyalashtirish" tushunchasidan foydalanilmoqda.

Moskvalik olim I.Yakovlev va L.Kabir "iqlimni moliyalashtirish deganda iqlim o'zgarishining oldini olish yoki yumshatish, shuningdek, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tushuniladi" [2] deya qayd etadi. Biz ushbu olimlarning fikriga qo'shilgan holda, "iqlimni moliyalashtirish" tushunchasi o'rniga "iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish" tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bugungi kundagi ekologik muammolardan kelib chiqqan holda, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish avvalo issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari infratuzulmasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni rag'batlantirishga qaratilishi lozim. Chunki, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda issiqxona gazlari manbalaridan voz kechishning eng samarali yo'li energiya ta'minoti tizimini qazib olinadigan yoqilg'idan qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'zgartirishdir.

Biroq, amaliyotda investor, bank va kompaniyalar iqlim o'zgarishi xavfini etarlicha baholamasdan, uglerodni ko'p talab qiluvchi aktivlarga sarmoyalarni ko'paytirishga harakat qilayotganligi, moliyalashtirishda aniq mezonlarni belgilash zaruriyatini ko'rsatadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilari 2013-yilga nisbatan 0,6 foizga kamaygan bo'lsada, 2017-yilda chiqindilar 189,2 million tonnani tashkil etib, mamlakatimiz energiya tejoychi va ekologik toza texnologiyalarni ilgari surish, shuningdek, iqlim dasturlarini moliyalashtirish orqali 2030-yilga kelib YaIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari miqdorini 2010-yilga nisbatan 35 foizga kamaytirish majburiyatini olgan [1]. Ushbu majburiyatni bajarish iqtisodiyotga yirik moliyaviy mablag'larni jalb qilishni talab etadi.

Bundan tashqari, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishi xavfi va ta'sirining kuchayishi aniq belgilariga

qaramay, moslashishni moliyalashtirish bo'yicha farq kengaymoqda va bu farq har yili 194 milliard AQSh dollaridan 366 milliard dollargacha o'zgarib turadi. Moslashuvni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hozirgi xalqaro davlat mablag'lari oqimidan 10-18 baravar ko'pdir" [3]. Ushbu ko'rsatkichlar yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi.

Shu bilan birga, kam uglerodli va iqlim o'zgarishlariga chidamli kelajakka o'tishni tezlashtirish jamoaviy harakatlar va ko'plab manfaatdor tomonlarning hamkorlik kuchini talab qiladi. Bu davlat, xususiyy va xayriya moliya institutlarining mablag'larini jalb qilish hamda iqlim dasturlarini barqaror moliyalashtirish manbalarini aniqlashni zaruriyatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishlariga olib keluvchi chiqindilarni chiqaruvchi davlatlar tomonidan mazkur sohaga ajratilayotgan mablag'lar, bugungi kun ehtiyojini qanoatlantirmasligi hamda adolatsiz taqsimlanayotganligi kuzatilmoqda. Masalan, dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishini moliyalashtirishning 75 foizdan ortig'i ularni ajratilgan mamlakatlarga sarflanadi. Natijada, ko'plab zaif mintaqalar, jumladan, global isishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydiganlar ham iqlimni moliyalashtirishdan cheklanadi [4].

Shu sababli, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirishda turli grant loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni tashqi manbalar, xususan iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat olib borayotgan fondlar hisobidan moliyalashtirishga erishish rivojlanayotgan davlatlar uchun foydali hisoblanadi.

Masalan, 2015-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Yashil iqlim jamg'armasi iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtiruvchi asosiy ko'p tomonlama fond hisoblanadi [5]. Uning faoliyati iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashishini ham qamrab olib, ushbu fond yirik moliyaviy salohiyat va xususiyy resurslarni jalb qilish qobiliyatiga hamda ijro etuvchi va vositachi tuzilmalarning keng tarmog'iga ega.

Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni nafaqat davlat budjetidan, balki xususiyy mulk shaklidagi korxonalar tomonidan ham moliyalashtirilish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Alohida e'tibor qaratish lozimki, xususiy mulk shaklidagi korxonalar tomonidan iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish tizimini moliyalash nafaqat qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurish yoki elektr dvigatelli transport vositalarini sotib olish, investor sifatida aktsiyalarni sotib olayotganda yuqori uglerodli qazilma yoqilg'idan foydalanadiganlarga nisbatan ekologik qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni tanlashi, iqlim o'zgarishlariga olib keluvchi omillarni bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishi, yashil iqtisodiyot sohalariga investitsiya kiritishi ushbu maqsadlar yo'lida keng yo'l ochadi.

Mavjud ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. "Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish moliyalashtirish" tushunchasiga "iqlim o'zgarishining oldini olish yoki yumshatish, shuningdek, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish" deya ta'rif berish;
2. Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishdagi maqsadlarni belgilashda uzoq muddatli atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan investitsion fikrlashga o'tish hamda biznes strategiyalarini nol chiqindilarga oid qarashlari bilan muvofiqlashtirish hamda shu asosida qisqa va o'rta muddatli moliyalashtirish rejalarini shakllantirish;
3. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishga ustuvorlik berish. Bunda, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishni moliyalashtirish eng avvalo issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari infratuzulmasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni rag'batlantirish.
4. Uglerodni ko'p iste'mol qiladigan rivojlanishdan uglerodli neytral va iqlimga chidamli infratuzilmaga adolatli o'tishni ta'minlash. Bunda, uglerodsiz va iqlimga chidamli infratuzilma va yashil echimlarga keng miqyosda sarmoya kiritish va barqaror iqtisodiy o'sish uchun tabiatga sarmoya kiritishni rag'batlantirish.
5. 2050-yilga borib mamlakatimiz iqtisodiyotida nol uglerod emissiyasiga erishishi uchun moliyaviy oqimlarni kam uglerodli faoliyatlarga va iqlimga chidamli rivojlanishga yo'naltirish;

6. Qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishni moliyalashtirishda xususiy mulkchilik shaklidagi korxonalar mablag'lari muhim rol o'ynaydi, shu sababli ularning ushbu sohaga qo'shgan hissalarini davlat tomonidan rag'batlantirish;

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан. (2023). Национальный доклад о состоянии окружающей среды: Узбекистан. Международный институт устойчивого развития. – Т: – С. 9.
2. Яковлев И.А., Кабир Л.С. Климатические финансы в контексте устойчивого развития. Экономика. Налоги. Право. 2019;12(5): - С. 45. DOI: 10.26794/1999-849X 2019-12-5-44-51
3. ЮНЕП ООН. Доклад о разнице мер адаптации к изменению климата за 2023 год. 02 ноябрь 2023 // <https://www.unep.org/ru/resources/doklad-o-raznice-mer-adaptacii-k-izmeneniyu-klimata-za-2023-god>
4. Rania Al-Mashat. Climate financing that puts people first. September 2023. // <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2023/09/POV-climate-financing-that-puts-people-first-rania-al-mashat>
5. <https://www.diplomatie.gouv.fr/en/french-foreign-policy/climate-and-environment/the-fight-against-climate-change/financing-the-fight-against/>